



## XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI QARORI

2021 - yil 21 - avgust

VI-27-33-4-0-K/21

Qashqadaryo viloyati hokimligi

### Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlari o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yin Nizomini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

#### QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlari o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yini Nizomi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. "Zakovat" intellektual o'yin Nizomida ko'rsatilgan talablar asosida tashkillashtirish xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (N.O'tagonova)ga topshirilsin.
3. Ushbu qaror viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

Кенгаш раиси



Z.Mirzayev

Халқ депутатлари Қашқадарё  
вилоят кенгашининг  
2021 йил 21 августдаги  
VI-27-33-4-0-К/21-сон қарорига  
1-илова

**Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlari o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat"  
intellektual o'yini**

**NIZOMI**

**1. Umumiy qoidalar**

1.1 Zakovat intellektual O'yini (keyingi bandlarda "O'yin" deb yuritiladi)

1.2 2021 yil 31 avgustga qadar bo'lib o'tadi. O'yinda 8 ta (klubning 8 ta jamoa navbatchiligida) jamoa, 2 ta o'yin o'takaziladi hamda 3 ta jamoa g'oliblikka sazovor bo'ladi.

1.3 Har bir o'yindan so'ng birinchi va ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar aniqlanadi. O'yin g'oliblarini aniqlash ushbu reglamentning 4 bandida batafsil keltirilgan.

1.4 Final uchun reyting o'yini so'ngi turi g'oliblarini aniqlab beruvchi o'yin (keying bandlarda "final O'yini" deb yuritiladi) vazifasini o'taydi.

**2. O'yin ishtirokchilari**

2.1 Xalq deputatlari viloyat Kengashining barcha deputatlari hamda viloyat Kengashi kotibiyati xodimlari o'yinda ishtirok etadi.

2.2 O'yinda ishtirok etayotgan jamoa tarkibi o'yin payti 6 kishidan oshmasligi lozim. Jamoa tarkibini almashtirish faqatgina turlar orasida tanaffus payti amalga oshirilishi mumkin.

2.3 Jamoa tarkibi 1-ilovaga, jamoalarga qo'yiladigan ballar 2-ilovaga muvofiq yuritiladi.

2.4 O'yinda ishtirokni to'xtatgan jamoa natijasi nolga tenglashtiriladi, qolgan jamoalarning ko'rsatgan natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi.

**3. O'yinlarni o'tkazish tartibi**

3.1 O'yin an'anaviy shaklda olib boriladi: savol – muhokama uchun bir daqiqa (har bir jamoa uchun og'zaki shaklda berilgan javob).

3.2 O'yin davomida o'nta savol beriladi, agar qo'yilgan ballar soni teng bo'lib qolsa, yana qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

3.3 Savol shakli boshlovchi tomonidan qaytarilmaydi, javob mazmunan va shaklan qisqa bo'lishi zarur.

3.4 Boshlovchi savolni o'qib bo'lgach, muhokama uchun berilgan daqiqa boshlanganligini "vaqt ketdi" iborasi bilan bildiradi.

3.5 Muhokama uchun ajratilgan vaqtga 10 soniya qolganini bildiruvchi "habar" beriladi va yakunda javoblarni (jamoalardan qaysi biri tugmani birinchi bo'lib bosgan bo'lsa) o'sha jamoadan bir nafar deputat aytishi kerak bo'ladi. Agar birinchi jamoa tomonidan noto'g'ri javob berilgan bo'lsa, navbatdagi birinchi bo'lib "tugmani" bosgan jamoaga javob berish navbati beriladi. Hech qaysi jamoa to'g'ri javobni bera olmasa, boshlovchi tomonidan to'g'ri javob e'lon qilinadi.

3.6 O'yin natijalari quyidagicha sarhisob qilinadi:

- 3 kishidan kam bo'lmagan hisob guruhi har bir savoldan so'ng o'yin uchun jadval qilinib, faqat to'g'ri javob bergan jamoaga bir ballidan yozib boriladi.

- o'yin yakunlangach, har bir jamoaning to'g'ri bergan javoblari soni jamlanadi va dastlabki natijalar e'lon qilinadi.

3.7 Shundan so'ng, hisob guruhi tomonidan inobatga olinmagan javoblar uchun apellyatsiya berish huquqiga ega. Jamoa apellyatsiyani faqat o'zining javoblari uchun bera oladi.

3.8 Hisob-komissiyasining qarori apellyatsiya natijasida o'zgartirilishi mumkin.

3.9 O'yinning yakuniy natijalari hisob-kitob qilinadi.

3.10 O'yinda jamoalar egallagan yakuniy o'rinlari quyidagicha aniqlanadi:

-to'g'ri berilgan javoblarning soniga ko'ra;

- bir xil miqdorda to'g'ri javob bergan jamoalar soni ikki va undan ortiq bo'lsa, u holda ushbu jamoalarga qo'shimcha savol berish yo'li orqali keyingi final bosqichga yo'l oladi va finalda g'olib shu tariqa aniqlanadi.

#### **4. O'yin g'olibini aniqlash tartibi**

4.1 O'yin finaliga chiqqan jamoalarning oldingi to'plagan ballari inobatga olinmaydi.

4.2 O'yin yakuniga ko'ra ko'p ball to'plagan jamoa yuqori o'rinni egallaydi.

4.3 Agar to'g'ri berilgan javoblar soni bir xil bo'lsa, unda yana qo'shimcha savol berish yo'li orqali O'yin g'olib jamoasi aniqlanadi.

4.4 G'olib jamoa Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat Kengashining "Zakovat" o'yini g'olibiga aylanadi.

4.5 O'yinda g'olib jamoa jamoalar aniqlanadi. Bundan tashqari "Eng yaxshi bilimdon", "Eng yaxshi jamoa sardori", "Eng faol ayol deputat" kabi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi. (Ushbu nominatsiyalarni individual tartibda har bir savolga faol qatnashgan hamda javob bergan deputatlarga beriladi).

#### **5. Yakuniy qoidalar**

5.1 O'yin davomida mazkur Nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuz bersa, bunday holatlar tashkiliy guruh tomonidan ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan hal etiladi.

5.2. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bu haqida o'yin boshlangunga qadar barcha jamoalar ogohlantirilishi kerak.

**Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlari o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yini NIZOMining 1-ilovasi**

№	F.I.Sh	Lavozimi	Qaysi okrugdand saylangan deputat	Jamoa nomi

**Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashi deputatlari o'rtasida o'tkaziladigan "Zakovat" intellektual o'yini NIZOMining**

**2-ilovasi**

№	Jamoa nomi	Qo'yilgan ballar (javobga faqat bir ball qo'yiladi)										Jami	Javob bergan deputat (F.I.O)				
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10						
1																	
2																	
3																	
4																	
5																	
6																	
7																	
8																	